

SAYYID MUHAMMAD HOTAMIYNING “SIVILIZATSIYALAR MULOQOTI” KONSEPSIYASI HAQIDAGI MULOHAZALAR

Abduraximova Dilaram

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Eronning taniqli jamoat arbobi, faylasufi va madaniyatshunosi Sayyid Muhammad Hotamidan ilgari surilgan “Sivilizatsiyalar muloqoti” konsepsiyasining har tomonlama tahliliga bag‘ishlangan. Sivilizatsiyalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarning kuchayishi va globallashuv jarayonining tezlashuvi sharoitida Hotamiy muloqot, o‘zaro tushunish va madaniy almashinuv g‘oyasini tinchlik va barqaror taraqqiyotga erishishning asosiy yo‘li sifatida ilgari suradi. Maqolada ushbu konsepsiyaning falsafiy, madaniy va siyosiy jihatlari batassil ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, “Sivilizatsiyalar muloqoti” nazariyasi insoniyatga qarama-qarshi yondashuvlarga falsafiy va axloqiy alternativani taklif qilishi, zamonaviy globallashgan dunyoda tinch va barqaror hamkorlik modelini ilgari surishi alohida ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Sayyid Muhammad Hotamiy, “Sivilizatsiyalar muloqoti”, muloqot, o‘zaro tushunish va madaniy almashinuv g‘oyasi

ABSTRACT

This article is dedicated to a comprehensive analysis of the “Dialogue of Civilizations” concept proposed by Sayyid Mohammad Khatami, a prominent Iranian public figure, philosopher, and cultural scholar. In the context of increasing conflicts between civilizations and the acceleration of globalization, Khatami advances the idea of dialogue, mutual understanding, and cultural exchange as the primary means to achieve peace and sustainable development. The article thoroughly examines the philosophical, cultural, and political aspects of this concept. Special emphasis is placed on how the “Dialogue of Civilizations” theory offers a philosophical and ethical alternative to confrontational approaches and promotes a model of peaceful and stable cooperation in the modern globalized world.

Keywords: Sayyid Muhammad Khatami, "Dialogue of Civilizations", the idea of dialogue, mutual understanding and cultural exchange

АННОТАЦИЯ

Настоящая статья посвящена всестороннему анализу концепции «Диалога цивилизаций», предложенной выдающимся иранским общественным деятелем, философом и культурологом Сайидом Мухаммадом Хатами. В условиях нарастающих противоречий между цивилизациями и стремительного

процесса глобализации Хатами выдвигает идею диалога, взаимопонимания и культурного обмена как основного пути к обеспечению мира и устойчивого развития. В статье подробно рассматриваются философские, культурные и политические аспекты данной концепции. Особое внимание уделяется тому, что теория «Диалога цивилизаций» предлагает человечеству философскую и нравственную альтернативу конфронтационным подходам, утверждая модель мирного и стабильного сосуществования в глобализированном современном мире.

Ключевые слова: Сайид Мухаммад Хатами, «Диалог цивилизаций», идея диалога, взаимопонимания и культурного обмена.

KIRISH

Bugungi globallashuv va murakkablashib borayotgan dunyo muhitida sivilizatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning o‘zaro ta’siri va tushunishi insoniyat taraqqiyotining muhim yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan zamonaviy dunyoda sivilizatsiyalararo munosabatlardagi qarama-qarshi tendentsiyalarni minimallashtirishga qaratilgan ilgari taklif qilingan g‘oya va nazariyalar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ulardan biri “sivilizatsiyalar muloqoti” bo‘lib, global darajada tushunilib, qo‘llab-quvvatlandi Ushbu kontseptsiya Eronning sobiq prezidenti, faylasuf va madaniyatshunos Sayyid Muhammad Xotami tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u 2001-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan rasman e’tirof etilib, shu yildan boshlab “Sivilizatsiyalar muloqoti yili” deb e’lon qilingan. Xotami tomonidan taqdim etilgan bu g‘oya sivilizatsiyalar o‘rtasidagi to‘qnashuv emas, balki muloqot, o‘zaro hurmat va madaniy boyish orqali tinchlik va barqarorlikka erishish mumkinligini asoslaydi.“Sivilizatsiyalar muloqoti” g‘oyasi zamonaviy dunyodagi global qarama-qarshiliklar, ayniqsa, g‘arb va sharq sivilizatsiyalari o‘rtasidagi ziddiyatlar fonida dolzarbligini saqlab kelmoqda. Bu kontseptsiya nafaqat falsafada balki, xalqaro siyosatda, madaniyatshunoslik, dinshunoslik sohalarida ham keng muhokama qilinmoqda. Ayniqsa, g‘arb olimlari tomonidan ilgari surilgan “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” g‘oyasiga nisbatan tanqidiy yondashuv sifatida Xotami nazariyasi sivilizatsiyalar o‘rtasida nafaqat raqobat, balki muloqot, hamkorlik va o‘zaro tushunish mumkinligini isbotlashga urinadi.

ASOSIY QISM

Sayyid Muhammad Xotami tomonidan ilgari surilgan “Sivilizatsiyalar muloqoti” kontseptsiyasi, falsafiy, madaniy va siyosiy jihatlarni chuqr tahlil qiladi va Shu bilan birga, bu kontseptsiya zamonaviy global muammolarni hal qilish, baholash va uni amaliyotda qo‘llash imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Sayyid Muhammad Xotami — Eronning taniqli jamoat arbobi, faylasuf va siyosatchi bo‘lib, 1997–2005 yillar davomida mamlakat prezidenti lavozimida faoliyat yuritgan. U diniy ilmlar bo‘yicha ta’lim olgan bo‘lsa-da, G‘arb falsafasi mutafakkirlarning asarlarini chuqur o‘rgangan. Uning nazariy qarashlari islomiy gumanizm va zamonaviy g‘arb falsafasi o‘rtasidagi muloqotni uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Xotamining asosiy g‘oyalaridan biri bu — muloqot madaniyatini shakllantirishdir. U global xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda turli sivilizatsiyalar o‘rtasidagi tushunish va hurmat asosidagi muloqot muhim ahamiyat kasb etadi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, insoniyat o‘z rivojlanishida muqarrar ravishda o‘zaro aloqadorlikka duch keladi, shuning uchun sivilizatsiyalar bir-birini yo‘q qilish emas, balki anglashga intilishi kerak. Xotami tomonidan ilgari surilgan “sivilizatsiyalar muloqoti” g‘oyasi 1990-yillarda keng tarqalgan “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” kontseptsiyasiga javoban shakllangan. Xususan, amerikalik siyosatshunos Samuel Xantington bu davrda g‘arb va islom dunyosi o‘rtasidagi qarama-qarshilikni bashorat qilgan edi. Xotami esa madaniyatlar va dinlar o‘rtasida muloqot orqali tinchlik va o‘zaro tushunishni ta’minlash mumkin, deb hisoblaydi. Shu ma’noda, Xotami o‘zining siyosiy faoliyati davomida ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham ochiqlik, islohot va gumanistik qadriyatlarga asoslangan yondashuvni ilgari surgan.

“Sivilizatsiyalar muloqoti” kontseptsiyasi chuqur falsafiy ildizlarga ega bo‘lib, bu g‘oya insoniyat tarixidagi xilma-xillik, ko‘pchiliklik (pluralizm) va o‘zaro tushunish zarurati asosida shakllangan. Xotami ushbu kontseptsiyada madaniyatlararo va dinlararo muloqotni inson mavjudligining asosi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, har bir sivilizatsiya o‘z dunyoqarashiga, axloqiy mezonlariga va tarixiy tajribasiga ega, va bu xilma-xillik insoniyatning umumiyligi boyligidir. Xotami Germenevtika — ya’ni, tushunish falsafasiga tayanadi va aynan shunday falsafiy asosdan ilhomlanib, sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot — bu faqat axborot almashinushi emas, balki anglash, tinglash va o‘zaro hurmat qilish san’ati ekanini ta’kidlaydi. Shuningdek, Xotami muloqot orqali axloqiy va ruhiy uyg‘unlikka erishish mumkinligini uqtiradi. Xotamiga ko‘ra, sivilizatsiyalar muloqoti ham shunday chuqur va samimiyligi anglashga asoslanishi lozim. Shunday qilib, “sivilizatsiyalar muloqoti” — bu insoniyatning tinch-totuv va barqaror taraqqiyot yo‘lidagi falsafiy va axloqiy alternativasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu g‘oya qarama-qarshilik va to‘qnashuvga asoslangan yondashuvlarga qarshi qo‘yiladi va insoniyat kelajagini hamkorlik, sabr-toqat va o‘zaro boyitish tamoyillari asosida qurishni taklif etadi.

Xotami o‘z kontseptsiyasi Islom va G‘arb dunyosi o‘rtasidagi murakkab

tarixiy va madaniy munosabatlarni chuqur tahlil qiladi. U G‘arbni nafaqat texnologik taraqqiyot manbai, balki falsafiy va axloqiy qadriyatlar tizimi sifatida ko‘radi.. U G‘arbni nafaqat texnologik taraqqiyot markazi, balki muayyan falsafiy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlar tizimi sifatida ham ko‘radi. Xotamiga ko‘ra, G‘arb va Islom dunyosi o‘rtasida ziddiyat emas, balki o‘zaro tushunish va boyitish imkoniyati mavjud.Islomiy madaniyat tarixan fan, falsafa, san’at va adabiyotda ulkan yutuqlarga erishgan. Xususan, O‘rta asrlarda musulmon faylasuflari — Forobiy, Ibn Sino, G‘azzoliy, Ibn Rushd kabi mutafakkirlar G‘arb falsafasiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xotami shu tarixiy tajribani qayta tiklash zarurligini ta’kidlab, G‘arb bilan muloqotni raqobat emas, balki hamkorlik sifatida ko‘radi. Shu bilan birga, u G‘arbda mavjud bo‘lgan individualizm va liberalizm g‘oyalarining Islom tamadduni bilan farqlarini ham inkor etmaydi. Biroq, bu farqlar muloqotga to‘siq emas, balki anglash va o‘zaro boyitish uchun imkoniyat sifatida qaraladi. Xotamining kontseptsiyasi Islomiy va G‘arbiy dunyo o‘rtasidagi tafovutlarni ko‘prikka aylantirish, o‘zaro muloqot orqali global tinchlik va taraqqiyotga zamin yaratish g‘oyasiga asoslanadi.

XULOSA

Sayyid Muhammad Xotamining “Sivilizatsiyalar muloqoti” kontseptsiyasi nafaqat zamonaviy xalqaro aloqalar tizimida, balki global madaniy-falsafiy tafakkurda ham muhim o‘rin tutadi. Bu g‘oya insoniyatning umumiy qadriyatlari, madaniyatlararo tushunish va tinchlikka intilishi zarurligini asoslaydi. Xotamining kontseptsiyasi faqat siyosiy emas, balki axloqiy va ma’naviy yondashuvni ham taklif etadi. U sivilizatsiyalar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni emas, balki muloqotni, o‘zaro hurmat va hamkorlikni ilgari suradi.Bugungi globallashuv davrida, dunyo tobora murakkablashib, ko‘proq bog‘lanib borayotgan bir vaqtda, bunday yondashuvlar jahon barqarorligi va tinchligini ta’minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.Shunday qilib, “Sivilizatsiyalar muloqoti” — bu sivilizatsiyalarni bir-biriga qarshi qo‘yish emas, balki ularni yaqinlashtirish, farqlarni ziddiyat emas, boylik sifatida qabul qilish, va eng asosiysi, umumiy insoniy qadriyatlarni asosida barqaror kelajak sari yo‘l ochishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Seyyed Muhammad Khatami. *Bim-e Mowj (Fear of the Wave)*, Tehran, 1993.
2. Seyyed Muhammad Khatami. *Az Donya-ye Shahr ta Shahr-e Donya (From the City-World to the World-City)*, Tehran, 1994.
3. Сейид Мухаммад Хатами. Диалог цивилизаций: путь к взаимопониманию. Алматы, 2002